



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Matluba Shodiyeva

Qashqadaryo viloyat XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA TURLI TA'LIM (AN'ANAVIY, MASOFAVIY, ONLAYN, DUAL) SHAKLLARI ORQALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda turli ta'lim (an'anaviy, masofaviy, onlayn, dual) shakllari orqali rasmiy, norasmiy, informal o'qitish texnologiyalarining ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalaridan namunalar va ularni qo'llash yuzasidan metodik ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, an'anaviy, masofaviy, onlayn, dual ta'lim shakllari, rasmiy, norasmiy, informal o'qitish texnologiyalari.

Kirish (Introduction). Zamonaviy sharoitlarda xalq ta'limi tizimida pedagoglarning intellektual salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, uni amalga oshirishning infratuzilmasini ishlab chiqish davr talabiga aylandi. Bugungi kunda dunyo miqyosida xalq ta'limi xodimlarini intellektual jihatdan rivojlantirishning insonparvarlikka asoslangan ko'p parametrlı konsepsiyalari ilgari surilmoqda. Binobarin, bu jarayon amaliyotda o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish, innovatsion jarayonlarni kengaytirish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, kasbiy ehtiyojlarga asoslanish, individual faoliyatni modellashtirish, loyihalashtirish, uzluksizlik, uzviylikni ta'minlovchi ko'p komponentli yondashuvlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy konsepsiyalarida Y.V.Bondarevskaya, V.V.Serikov, N.K.Sergeyev,



V.A.Slastenin, S.A.Kotova, A.V.Petrovskiy, I.S.Yakimanskayava boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ta'limga shaxsiy yo'nalishni belgilab berishga yordam beradi. Ular shaxsiy-semantik rivojlanishning ustuvorligi, ta'lim oluvchining subyektiv tajribasi, uning individualligini pedagogik qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini harakat qilish uchun sharoit yaratish, shaxsni rivojlantirish, ta'lim oluvchini ta'lim va hayot subyekti sifatida shakllantirish g'oyalariga asoslangan.

M.V.Belov va D.A.Novikov tadqiqotlarida texnologiya maqsadga izchil erishish shart-sharoitlari, mezonlari, shakllari, usullari va vositalari tizimi sifatida talqin qiladi [2; 8-bet].

G.Ernazarovanning [9] ilmiy tadqiqotlarida munozarali akmetexnologiya, rivojlantiruvchi akmetexnologiya, treningli akmetexnologiya, o'yinli akmetexnologiyalar va ularni qo'llash metodikalari fanni o'qitishda ta'limning pedagogik-psixologik-akmeologik vazifalari integratsiyasini ta'minlash vositasi sifatida qayd qilingan.

E.V.Lopanova tadqiqotlarida ta'lim texnologiyalarini tanlashning o'qitish mazmunini, o'qitishning individualizatsiyasi va tabaqalanishini, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadli yo'naltirish, o'qituvchining texnologiyani, rentabellikni, moddiy va texnologik xavfsizlikni amalga oshirishga tayyorligi kabi mezonlariga e'tibor qaratadi [7].

T.A.Dmitrenko oliy pedagogik maktabda kasbga yo'naltirilgan texnologiyalarning eng muhim xususiyatlarini aniqlashga doir tadqiqotlarida quyidagi mezonlarni ishlab chiqdi: samaradorlik; rentabellik; ergonomika / psixo-gigiyena; mavzuni o'rganishga yuqori turtki yaratish; didaktikaning so'nggi yutuqlaridan foydalanish; ta'lim mazmunining axborot qobiliyatini oshirish; umumiy ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quvchilarning yuqori aqliy faolligini ta'minlaydigan o'quv va uslubiy yordam [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Texnologiyalarni tanlash prinsiplari, ularga qo'yiladigan talablarga doir dissertatsiya tadqiqotlari va turli ilmiy adabiyotlar tahlili (V.I.Zagvyazinskiy, M.M.Levina, E.S.Polat) hamda boshqa nuqtai nazarlarni o'rganish natijasida tadqiqotimiz doirasida o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishga doir texnologiyalarga qo'yiladigan talablarni umumlashtirdik: ta'limning intensivligi; kasbiy faoliyatni modellashtirish imkoniyati; mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkoniyati; o'quv materialining yuqori nazariy darajasi; o'qitish sifatini ta'minlash; ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi va amaliyotda foydalanish kafolati; o'quv muammolarini har tomonlama hal etish; shaxsiy yo'nalish; kognitiv rivojlanishda taraqqiyotni ta'minlash; o'qituvchining kasbiy faoliyati bilan bog'lash va uning ehtiyojlari, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini inobatga olish; kasbiy faoliyatga va kasbiy rivojlanishga bo'lgan qiziqishni oshirish; amaliy yo'nalish; o'quv materialining muammoli mohiyati; rivojlantiruvchi xarakterga egaligi; kasbiy bilimlarni rivojlantirish; texnologiyalarning bir-biri bilan muvofiqligi.

Zamonaviy fan va amaliyot o'qituvchilarning har qanday ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lgan turli xil texnologiyalarga ega. Texnologiyalar guruhlarini tizimlashtirish uchun turli asoslar mavjud. O'quv muhitining (yoki sharoitlarining) tabiatiga qarab, barcha ma'lum texnologik o'qitish usullarini uch guruhga bo'lish mumkin [6]:

- an'anaviy sinf tizimi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnologik usullar (muammoli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, o'yinlar va boshqalar);
- ta'lim muassasasi ishini tashkiliy modernizatsiya qilishni talab qiladigan texnologik usullar (konsentrlangan ta'lim, o'qitishning kollektiv usuli va boshqalar);

➤ ta'lim mazmunini o'zgartirishni talab qiladigan texnologik usullar ("muloqot texnologiyalari", ehtimollik ta'limi va boshqalar).

O.A.Ivanova tadqiqotlarida kattalar ta'limini tashkil etishga doir texnologiyalarni quyidagi turlarda umumlashtiradi [1]: modulli o'qitish texnologiyasi; o'qitishning modulli-reyting texnologiyasi; ta'limning modulli-kredit texnologiyasi; moslashuvchan ta'lim tizimi texnologiyasi; to'liq assimilyatsiya qilish texnologiyasi; ko'p bosqichli ta'lim texnologiyasi; individual ta'lim trayektoriyalari texnologiyasi; parasentrik ta'lim texnologiyasi; nazorat va tuzatish texnologiyasi; o'qitishning individual-jamoa texnologiyasi; o'qitishning jamoa-individual texnologiyasi va boshqalar.

Ta'limning andragogik modeli uchun tadqiqotchilar tomonidan tavsiflangan – katta yoshdagilarning individual ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'z-o'zini rivojlantirishga va o'z ta'lim jarayonini tashkil etish ko'nikmalariga ega bo'lishga qaratilgan individual ta'lim trayektoriyalari texnologiyasi dolzarbdir.

Shuningdek, mutaxassislar yetakchi (ustun) faoliyatga qarab, ta'lim texnologiyalarining quyidagi oltita asosiy guruhini ajratish mumkinligini ta'kidlaydilar [4]:

- ✓ tushuntirish va illyustrativ texnologiyalar (tushunish, tan olish);
- ✓ reproduktiv texnologiyalar (ijro etish);
- ✓ muammoli qidiruv texnologiyalari (tadqiqot);
- ✓ aloqa texnologiyalari (muloqot);
- ✓ taqlid va rol o'ynash texnologiyalari (o'yin);
- ✓ aks ettiruvchi (reflektiv) texnologiyalar (o'qish, o'qitish).

Bizning nazarimizda, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda Y.I.Mixaylova, O.M.Chorossova, R.YE.Gerasimova, T.A.Makarenkolar tomonidan taklif qilingan kattalarni o'qitishga doir texnologiyalar guruhi kattalar ta'limini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini va barcha ma'lum texnologik o'qitish usullarini o'zida mujassamlashtiradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Insonning tobora o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish, o'z shaxsini rivojlantirish muammosi ham juda dolzarbdir, kattalar ta'limi esa o'z shaxsini takomillashtirish va o'zligini namoyon qilishga yordam beradi. O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi hisoblanadi. Kasbiy rivojlanishning asosiy yo'nalishi – kasbiy tayyorgarlik, kasbni egallash va kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida shaxsni rivojlantirish hisoblanadi. Shaxsni kasbiy shakllantirish jarayoni individual ravishda o'ziga xosdir, kasbiy faoliyat insonga o'zini anglash, o'zini o'zi rivojlantirish imkoniyatlarini beradi, shaxsning kasbiy hayotining individual trayektoriyasi normativ va normativ bo'lmagan hodisalar bilan belgilanadi, kasbiy rivojlanishning psixologik xususiyatlarini bilish insonga o'z kasbiy biografiyasini ongli ravishda loyihalashtirish, qurish, o'z tarixini yaratishga imkon beradi.

Tinglovchi-o'qituvchilar kasbiy-pedagogik faoliyatining yuqori darajada bo'lishi uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida o'quv mashg'ulotlarining nechog'li samarali tashkil etilishiga bog'liq. O'quv mashg'ulotlarining natijaviyligini ta'minlashda esa mashg'ulotni tashkil etish uchun maqsadli tanlangan texnologiya va metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizkattalar ta'limi texnologiyasiga quyidagicha ta'rif berdik: kattalar ta'limi texnologiyasi – bu katta yoshdagi o'quvchilar va andragog o'qituvchilarning dalillarga asoslangan harakatlari tizimi bo'lib, uni amalga oshirish davlat, jamiyat, o'qituvchi ehtiyojlarini amalga oshirish, mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ta'lim maqsadlariga erishishga olib keladi.

Kattalarni o'qitish texnologiyasi – rejalashtirilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyatning meyoriy tavsifi (tinglovchi-o'qituvchining dastlabki, joriy va yakuniy holati, natijalarga erishish jarayoni, metodlari, vositalari va usullari).

Kattalar ta'limi texnologiyasi katta yoshdagi o'quvchilar va andragog o'qituvchilar tomonidan o'quv jarayonining olti bosqichining har birida ma'lum operatsiyalar, texnik harakatlar va funksiyalarni olib borish shaklida amalga oshiriladi: diagnostika, rejalashtirish, sharoitlar yaratish, o'quv jarayonini amalga oshirish, baholash va tuzatish [5].

Demak, kattalar ta'limida “texnologiya” tushunchasining mohiyatini belgilovchi yetakchi belgilar sifatida quyidagilar ajralib turadi:

yo'naltirilganlik: fanga yo'naltirilganlikdan farqli ravishda tinglovchi-o'qituvchi faoliyatiga yo'naltirish;

subyektivlik: texnologiya metodologiyadan farqli o'laroq, hech qanday o'quv fanining mazmuni bilan bevosita bog'liq emas, u asosan universal xususiyatga ega va turli fan mazmuniga qo'llanilishi mumkin;

jarayonlilik: tinglovchi-o'qituvchining ta'lim trayektoriyasini oxirigacha loyihalash;

takrorlanuvchanlik: ta'lim texnologiyalarini o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydigan dastur, tartib va maqsadlarga erishish bosqichlarining aniq tavsifi;

sikllik: har bir yangi o'quv siklida tinglovchi-o'qituvchi faoliyatining umumiy tuzilishining takrorlanuvchanligi;

tinglovchi-o'qituvchi faoliyati tarkibida uning malakasi va mustaqilligini rivojlantirishni ta'minlovchi refleksiv komponentning mavjudligi.

Bunda kattalar ta'limi quyidagi sxema asosida tashkil qilinadi: “tajriba–aks ettirish–bilim–o'zgaruvchan vaziyatlarda qo'llash tajribasi”. Ta'lim jarayonini bunday tashkil etishning maqsadi va natijasi – bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi ajralmas xususiyat sifatida mutaxassisning rivojlangan kompetentligi bilan belgilanadi.

Ushbu muammoni hal etishda mahalliy va xorij tajribasidagi o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini o'rganish va umumlashtirish asosida o'qituvchilarni turli ta'lim shakllari (an'anaviy, masofaviy, onlayn, dual) orqali rasmiy, norasmiy, informal o'qitishda foydalanishga doir texnologiyalarni uchta yirik konseptual guruhga birlashtirdik:

Rasmiy o'quv jarayoni orqali jamoaviy va kichik guruhlarda fanlarni o'qitishning yagona o'quv dasturi, shuningdek, ta'lim va o'qitishning aniq maqsad va vazifalariga muvofiq tuzilgan o'quv rejasi orqali direktiv – tizimli amalga oshirish texnologiyalari. Bu guruhdagi texnologiyalar katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berishning rasmiy shaklida qo'llaniladi. Rasmiy – davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi

institutsonallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Pedagogika xonalarida o'qitishga asoslangan norasmiy, mustaqil boshqariladigan va rivojlanayotgan texnologiyalar ("bepul darslar", "erkin ijodiy ishlar", "xohish, ehtiyoj va motivatsiyaga asoslangan mashg'ulotlar"). Norasmiy – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsonallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Amaliy va rivojlanayotgan nazariyalarga asoslangan, axborot olish uchun xizmat qiladigan (informal) kommunikativ va interfaol texnologiyalar. Bular didaktik va metodik jihatdan loyihaga yo'naltirilgan guruhlarda, juft guruhlarda ishlash, jamoa bo'lib ishlash (Team-Teaching), funksional jihozlar bilan jihozlangan maxsus xonalardagi mashg'ulotlar, maxsus o'quv mashg'ulotlari, haftalik rejaga muvofiq bepul ishlashni tashkil qilishga doir texnologiyalar hisoblanadi. Informal – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsonallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Mazkur texnologiyalar auditoriyada o'qitishga mo'ljallangan an'anaviy kurslar orqali o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish jarayonida qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Differensial o'qitish texnologiyalari (Differential learning technologies).

Maqsadi: tinglovchi-o'qituvchining individual xususiyatlari – ta'lim olish qobiliyati va bilim o'zlashtirish imkoniyatini hisobga olgan holda o'qitishni ko'zda tutadi.

Mohiyati: ushbu texnologiya har bir ta'lim oluvchini yaqin rivojlanish doirasiga mos keluvchi faoliyatini hisobga olgan pedagogik sharoit yaratishni va differensial darajali o'qitishni ko'zda tutadi.

Mexanizmi: shaxsning dinamik xarakteristikasi tashxisi va umum o'quv malakalarni egallash darajasi asosida o'qitish; bilim olish va qiziqishlari yo'nalishlariga bog'liq holda tanlash; profil o'qitish variantlari bo'yicha tashkil etish; bilish mazmunini faollashtirish va tinglovchi-o'qituvchining bilish faoliyatini rag'batlantirish; o'quv materialini o'zlashtirish darajasini ixtiyoriy tanlash (Davlat talablari va malaka talablaridan kam bo'lmagan holda); tinglovchi-o'qituvchining mustaqil ishini tashkil etish; o'quv jarayonini juftlikda, guruhiy va jamoaviy shakllarda tashkil etish; o'quv materialini o'zlashtirilishi ustidan nazorat o'tkazish; tinglovchi-o'qituvchilarning umumiy o'rta ta'lim muassasasidagi faoliyat yo'nalishi bo'yicha alohida ishlab chiqilgan kontent va metodika bo'yicha maqsadli o'qitish, masalan 1-sinflarda (shuningdek, boshqa sinf) dars beruvchi o'qituvchilarni (1-sinflarda o'qitiladigan fanlarni o'qitish metodikasi va ta'limiy muammolari yuzasidan) alohida tashkil etilgan guruhlarda o'qitish; shaxsiy ta'lim rejasi bo'yicha tezkor o'qitish.

O'quv faoliyatining ijodiy dizaynini yaratish texnologiyasi (Technology for creative design of educational activities). Dizayn – obyektning ma'lum bir estetik tavsiflari asosida san'atkorona loyihalash.

Maqsadi: tinglovchi-o'qituvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirish; muammolarni hal qilish malakasini shakllantirish; masala yechimini ongli ravishda izlash qobiliyatini rivojlantirish.

Mohiyati: o'quv faoliyatining ijodiy dizaynini yaratish.

Mexanizmi: saralash metodi – bir qancha alternativ yechimlarning har birini baholab, ahamiyatligiga qarab, ular ichidan eng to'g'risi tanlanadi; izlanish metodi – bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklar va ularni yuzaga kelish sabablari bilvosita yo'llar bilan aniqlanadi; kundaliklar metodi – ma'lum vaqt oralig'ida guruhning har bir a'zosi tomonidan tug'ilgan g'oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o'rtacha fikrga kelinadi; 6-6 metodi – guruhning olti a'zosi 6 minutda masala yechimi bo'yicha alohida-alohida o'z fikrlarni va o'z variantlarini yozishadi, keyin guruhda tahlil qilinib, eng muhimi tanlab olinadi.

Bunda quyidagi harakatlar ketma-ketligi amalga oshiriladi:

1. Mavjud obyekt (subyekt) holatini tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatni shakllantirish, aniq ijodiy vazifalar asosida muammoli vaziyatni o'zgartirish (boshlang'ich ma'lumotlar, yechimni aniqlashdagi sharoitlar, kerakli cheklanishlar va amalga oshirish vositalari, maqsadning aniqligi).
2. G'oyani izlash, ijodiy o'zgartirish va transformatsiyalash (boshqa shaklga aylantirish) shartlari va prinsiplari.
3. Fikriy tajribalar natijasi sifatida ishlanmaning ideal modelini ishlab chiqish.
4. Modelni amalga oshirish bo'yicha tajriba ishlarini o'tkazish va umumlashtirish.
5. Natijalarni tahlil va talqin qilish hamda izohlash.

Mazkur texnologiyalar masofaviy va onlayn tarzda o'qitishga mo'ljallangan kurslar orqali o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida qo'llanilishi tavsiya etiladi.

“Uzoqlashtirilgan auditoriyalar” (Distant auditoriums) texnologiyasi. Muayyan ta'lim muassasasida (ixtisoslashtirilgan malaka oshirish markazlarida) tashkil etilgan o'quv kurslari, ma'ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta'lim muassasalarining (umumiy o'rta ta'lim muassasalari) o'quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman va radio eshittirish ko'rinishida uzatilishini ko'zda tutadi.

"Personal learning environment" (Shaxsiy ta'lim muhiti) texnologiyalari.

Maqsadi: umr bo'yi ta'lim olish maqsadida shaxs tomonidan tashkil etilgan (bosma va elektron nashrlar) vositalar, xizmatlar va resurslarning o'zini o'zi boshqaradigan va rivojlanayotgan muhitini yaratish.

Mohiyati: ma'lumotlarning doimiy ravishda yaratilishi, yangilanishi va almashinishi.

Mexanizmi: anglash; qidiruv; yig'ish; to'plash; qo'llash; aks ettirish; nashr qilish; muloqot; hamkorlik; qayta ishlash.

Mazkur texnologiya dual ta'lim shaklida o'qitishga mo'ljallangan kurslar orqali o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida qo'llanilishi tavsiya etiladi.

**"Flipped class" texnologiyalari.**

Maqsadi: o'qituvchi-tinglovchilarning mustaqil ta'limini hamda mustaqil o'zlashtirgan bilimlari asosida hamkorlikdagi faoliyatini tashkil qilish.

Mohiyati: uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun qayta aloqa o'rnatish imkoniyatini yaratish.

Mexanizmi: mavzu va uning mazmunini aniqlash; o'quv-metodik ta'minotni yaratish; materiallar bilan ishlash bo'yicha yo'riqnoma tayyorlash; ta'lim oluvchilar bilan aloqa o'rnatish; amaliy mashg'ulot o'tkazish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Agar o'qituvchida shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo'lsa, u barcha o'zgarishlarga o'z munosabatini oson bildiradi, ularni to'g'ri baholaydi, boshqaradi va o'z kasbiy sohasida ularni amalga oshiradi. Bu borada olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqoridagi kabi vazifalarni amalga oshirish o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda o'qituvchining pedagogik imkoniyatlarini to'liq qamrab olgan, kasbiy salohiyatini namoyon eta oladigan, psixologik va individual imkoniyatlari hisobga olingan amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunda tinglovchi-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish jarayonida egallagan nazariy ma'lumotlari asosida ularning amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda xalq ta'limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini aniqlash va ularning malakasini oshirishga differensial yondashuv dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Bunday muammolarni hal etish esa o'z navbatida o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi. Xulosa shuki, pedagoglar auditoriyadan tashqari o'z bilimlarini mustaqil ravishda oshirib, fanga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishlari kerak. Mustaqil ta'lim orqali o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalar, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglatuvchi kasbiy tafakkurni shakllantirish, pedagogik bilimlar tizimini hamda mutaxassisligi bo'yicha o'qitish texnologiyalarini egallash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В.В.Афанасьев, О.А.Иванова. Использование ресурсов неформального образования в системе дополнительной профессиональной подготовки педагогов// Вестник НВГУ. №1/2016. Электрон ресурс: file:///C:/Users/User/Desktop/ispolzovanie-resursov-neformalnogo-obrazovaniya-v-sisteme-dopolnitelnoy-professionalnoy-podgotovki-pedagogov.pdf
2. М.В.Белов, Д.А.Новиков. Модели технологий. – М.: Ле-нанд, 2019. – 160 с.
3. Дмитренко Т.А. Профессионально-ориентированные технологии обучения в системе высшего педагогического образования: диссертации доктор педагогических наук //13.00.08. 2004. – с 442.



4. Есенкова Т.Ф. Педагогические технологии в образовании взрослых: методология, содержание, эффективность // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-7. – С. 1483-1488; [электронный ресурс]. URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=37178> (дата обращения: 19.03.2022).
5. Змеёв С.И. Становление андрагогики: Развитие теории и технологии обучения взрослых: диссертации доктор педагогических наук. – М.: 2000 г. – С 179.
6. Качественное дополнительное профессиональное образование взрослых как социальная ответственность федерального университета: монография / Е.И.Михайлова, О.М.Чоросова, Р.Е.Герасимова, Т.А.Макаренко и др. СВФУ им. М.К.Аммосова, Ин-т непрерывного проф. образования. – Якутск : Издательский дом СВФУ, 2015. – 388 с.
7. Лопанова Е.В. Актуализация педагогических технологий в развитии профессионально-педагогического мышления: диссертации кандидат педагогических наук//13.00.01, кандидат педагогических наук. – М.: 1998. – с 190.
8. Shodiyeva M.J. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari // Zamonaviy ta'lim jurnali. 2021. № 4 (101), 58-63-betlar.
9. Ernazarova G.O. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) diss. avtoreferati. –Т.: 2018. – 68 b.